



## **XALQ DEPUTATLARI UCHQUDUQ TUMAN KENGASHINING QARORI**

Uchquduq tuman, Amir Temur ko‘chasi – 28, tel: (79) 222-00-05

2023 - yil 29 - dekabr

VI-78-152-5-76-K/23

Uchquduq tumani hokimligi

### **Tumanning 2024-yilgi mahalliy budjeti parametrlarini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Budget kodeksining 99-moddasi, O‘zbekiston Respublikaning 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonuni hamda Navoiy viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 26-dekabrdagi 01-12/20-05-38/3691-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Uchquduq tuman Kengashi

#### **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonuni va xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi “Navoiy viloyatining 2024-yilgi mahalliy budgetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-66-128-5-0-K/23-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining “Navoiy viloyatining 2024-yilgi mahalliy budgetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-66-128-5-0-K/23-sonli qaroriga muvofiq, Uchquduq tumanining mahalliy budgeti 2024-yil uchun daromadlari **57 612.2 mln. so‘m**, xarajatlari **132 923.4 mln. so‘m**, jami ajratiladigan tartibga soluvchi transfertlar miqdori **75 311,2 mln. so‘m**, shu jumladan, viloyat budgetidan **68 567,4 mln. so‘m**, respublika budgetidan aksiz solig‘i tushumlari hisobidan **6 743,3 mln. so‘mga** tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

Uchquduq tumani mahalliy budgeti daromadlarining 2024-yilgi asosiy prognoz ko'rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq;

2024-yil uchun tuman budgetidan birinchi darajali budget mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining "Navoiy viloyatining 2024-yilgi mahalliy budgeti parametrlarini tasdiqlash to'g'risida"gi VI-66-128-5-0-K/23-sonli qarori 4-ilovasi bilan tasdiqlangan Uchquduq tumani budgetiga umum davlat soliqlaridan ajratmalar me'yordi 3-ilovaga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Bunda, ajratma me'yordi bo'yicha tuman mahalliy budgetining taqsimotini o'rnatilgan tartibda tuman g'aznachilik bo'linmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin.

5. 2024-yil uchun tuman budget daromadlari va xarajatlari prognozlari 4-ilovaga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

6. Tuman mahalliy budgetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budgetlararo transferlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budgetlararo transferlar miqdorini tuman mahalliy budgeti daromadlari prognози ijrosidan qat'i nazar kamaytirishga yo'l qo'yilmasligi Qonunda belgilab qo'yilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2024-yil uchun tumanning tuman budgeti zahira jamg'armasi hajmlari 1 202 mln. so'm miqdorida belgilansin.

Tuman mahalliy budgetini ijro etishda yuqori turuvchi budgetdan ularga ajratiladigan budgetlararo transferlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budgetlarining zaxira jamg'armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmaydi.

Tuman budgetining zaxira jamg'armalari mablag'larini budget tizimi budgetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo'lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo'lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta'minlansin.

8. 2024-yil uchun tuman mahalliy budgeti shaxsiy g'azna hisob-varaqlarida turgan budget mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 532,1 mln so'mni hamda tuman byudjeti shaxsiy g'azna hisob-varaqlarida turgan budget mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

9. 2024-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budgetlarni

boshqarishda, xususan mahalliy budget xarajatlarini hududiy budget mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman mahalliy budgetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining tegishli ajratma qilingan qismi;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solig‘ining tegishli ajratma qilingan qismi;

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2024-yilda tuman aholisining ulushiga muvofiq.

b) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i viloyat budgeti hamda tuman mahalliy budgetlari o‘rtasida taqsimlanadi.

10. Tuman hokimining mahalliy budgetining qo‘srimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi farmoyishlari tegishli ravishda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tumandagi tegishli korxona va tashkilotlarning takliflari hamda murojaatlariga asosan tegishli xarajatlarga yo‘naltirish maqsadida qabul qilinadi.

tuman hokimi favqulodda vaziyatlarda va shunga o‘xshash kechiktirib bo‘lmaydigan choralar ko‘riliishi talab etiladigan hollarda ishlatilgan mablag‘lar to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berish sharti bilan qo‘srimcha manbalarni yo‘naltirish bo‘yicha qaror va farmoyishlarni qabul qiladi.

11. Tuman hokimligi tashabbusi bilan amalga oshiriladigan tadbirlar uchun talab etiladigan mablag‘lar tegishliligi bo‘yicha ushbu mahalliy budgetlarning ijrosi

davomida shakllangan qo'shimcha manba hisobidan amalga oshirilishi qat'iy belgilab qo'yilsin.

12. Tuman hokimining birinchi o'rinnbosari (D.Shakarov), Iqtisodiyot va moliya bo'limi (J.Bobomurodov), davlat soliq inspeksiyasi (A.Usmanov), mas'ul korxona va tashkilotlar bilan birlashtirilgan:

tegishli budgetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirsin;

mahalliy budgeti prognoz ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va samarali bajarish;

budget mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budget intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas'uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budgetlarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushumini ta'minlash;

budget daromadlar bazasini oshirish va qo'shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e'tibor qaratsin.

13. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (A.Usmanov) tegishli mas'ullar bilan birlashtirilgan:

soliqlarning to'liq va to'g'ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o'z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo'yicha doimiy tahlillar o'tkazgan holda, soliqlarni to'liq hisoblanishini ta'minlash hamda ushbu soliq to'lovlari bo'yicha soliq qarzdorligiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish;

aylanmadan soliq turi bo'yicha soliq to'lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o'rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o'tkazish;

bunda, mazkur yo'nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ'ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e'tibor qaratish;

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifalari yuklatilsin.

14. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (A.Usmanov), Kadastr agentligi tuman filiali boshlig‘i (O.Yorqulov) yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqr tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

15. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (A.Usmanov), tegishli mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karyerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin. Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karyerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budgetning qo‘sishimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

16. Majburiy ijro byurosi Uchquduq tuman bo‘limi, tuman davlat soliq inspeksiyasi bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rsin.

17. Tumandagi mahalla va ovul fuqarolar yig‘inlari raislari jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

18. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (D.Shakarov), davlat aktivlarini boshqarish agentligi Navoiy viloyat hududiy boshqarmasi bilan hamkorlikda:

bo‘sh turgan davlat mulki ob’yektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra tumanda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki

ob'yeqtari ro'yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro'yxatga asosan bo'sh turgan davlat mulki ob'yeqtalarini ijara berish yoki sotish bo'yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo'sh turgan davlat mulki ob'yeqtalarini ijara berish yoki sotish bo'yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va videomateriallar tayyorlash;

xususiyashtirilishi mo'ljallangan bo'sh turgan davlat mulki ob'yeqtalarini "e-auksion" elektron platformasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifalari yuklatilsin.

19. Tuman davlat soliq inspeksiysi (A.Usmanov) tuman hokimining tegishli o'rribbosarlari bilan birgalikda tumanda fermer xo'jaliklari va boshqa korxonalarga sarflanayotgan suv hajmlari bo'yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste'mol hajmlari bo'yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to'liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetlarga to'liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishoq xo'jaligi korxonalari tomonidan iste'mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo'yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo'yicha doimiy tahlillar o'tkazishga alohida e'tibor qaratilsin.

20. Iqtisodiyot va moliya bo'limi (J.Bobomurodov) va boshqa tegishli korxona va tashkilotlar bilan birgalikda:

budget intizomiga qat'iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlarini kuchaytirish;

budget intizomini buzish holatlari bo'yicha har chorak yakuni bilan xalq deputatlari tuman Kengashiga axborot kiritib borish;

o'tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo'yicha kamomad va noqonuniy o'zlashtirishga yo'l qo'ygan soha rahbarlarining hisobotini har chorakda eshitib borish vazifalari yuklatilsin.

21. Tegishli korxona va tashkilot rahbarlariga:

Qo'shimcha manbalar hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurish, rekonstruksiya va ta'mirlash ishlari olib borilayotgan ob'yeqtlar ro'yxati, shuningdek, qurilish-ta'mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni tegishli ravishda majburiy tartibda o'z rasmiy veb-saytlarida joylashtirib borsin;

tuman mahalliy budjeti jami xarajatlarining 11,5 mldr so‘mi hamda shakllangan qo‘sishimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirilsin.

Bunda, xalq deputatlari tuman Kengashi, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda hokim yordamchilari budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirotkini ta’minalash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy budgetlarning qo‘sishimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlarini olib borilayotgan ob’yektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar o‘rnatilgan tartibda tuman hokimligi rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

22. Tuman hokimligi mazkur tegishli qonun va qarorlarga asosan tegishli ravishda hududiy budget mablag‘lari taqsimlovchilarining budget mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalar bo‘yicha hisobotlarini tegishliligi bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashiga taqdim etib borsin.

23. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (D.Shakarov), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (J.Bobomurodov) va tuman davlat soliq inspeksiyasi (A.Usmanov) budget daromadlari va xarajatlarining ko‘rsatkichlarini bajarilishini ta’minalash, soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rish, budget mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish uchun xalq deputatlari tuman Kengashiga ma’lumot kiritib borilsin.

24. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (A.Usmanov) qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minalasin.

25. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (R.Qodirova), “UCHQUDUQ” gazetasi tahririyatiga:

mazkur qarorni “UCHQUDUQ” gazetasida rasmiy e’lon qilish va tuman hokimlining rasmiy veb-saytiga joylashtirish tavsiya etilsin.

26. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

27. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (D.Shakarov) va xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budgetni, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish

masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (O.Hikmatov) zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash raisi**



**S.Xamroyev**

Xalq deputatlari Uchquduq  
tuman Kengashining  
2023-yil 29-dekabrdagi  
VI-78-152-5-76-K/23-son  
qaroriga  
1-ilova

**Uchquduq tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2024-yildagi asosiy prognoz  
ko‘rsatkichlari**

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
<b>JAMI</b>		<b>57 612 200</b>
1	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	9 002 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	25 368 200
3	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 978 000
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	1 117 000
6	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	1 500 000
7	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	18 647 000

Xalq deputatlari Uchquduq  
tuman Kengashining  
2023-yil 29-dekabrdagi  
VI-78-152-5-76-K/23-son  
qaroriga  
2-ilova

**2024-yil uchun Uchquduq tumani mahalliy budjetidan birinchi darajali budjet  
mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari**

*ming so 'm*

<b>№</b>	<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>miqdori</b>
	<b>Xarajatlar miqdori, Jami</b>	<b>132 923 441</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	<b>132 923 441</b>
<b>1</b>	<b>Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi</b>	<b>26 069 072</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	26 069 072
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
<b>2</b>	<b>Sog'liqni saqlash bo'yicha</b>	<b>49 186 502</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	49 186 502
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
<b>3</b>	<b>Madaniyat bo'limi</b>	<b>2 261 660</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2 261 660
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
<b>4</b>	<b>Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarga "dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi"</b>	<b>10 500</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	10 500
<b>5</b>	<b>Ijtimoiy ko'nikma markazi</b>	<b>85 073</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	85 073
<b>6</b>	<b>Jismoniy tarbiya va sport sohasi bo'yicha</b>	<b>4 043 334</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	4 043 334
<b>7</b>	<b>Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish sohasi bo'yicha</b>	<b>2 274 680</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2 274 680
<b>8</b>	<b>"Mahalla budjeti" jamg'armasi mablag'lariga</b>	<b>220 400</b>

	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	220 400
<b>9</b>	Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarini ta’mirlash xarajatlari	<b>4 000 000</b>
<b>10</b>	<b>Obodonlashtirish boshqarmasi</b>	<b>13 074 500</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	13 104 505
<b>11</b>	<b>Davlat boshqaruv organlarini saqlash xarajatlariga</b>	<b>18 944 144</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	18 944 144
<b>12</b>	<b>“Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasi</b>	<b>11 520 562</b>
<b>13</b>	<b>Zaxira jamg‘armasi xarajatlari</b>	<b>1 202 009</b>

Xalq deputatlari Uchquduq tuman Kengashining  
2023-yil 29-dekabrdagi  
VI-78-152-5-76-K/23-son qaroriga  
3-ilova

**Umum davlat soliqlaridan tuman mahalliy budgetiga ajratmalar me'yori**

*Foiz hisobida*

T/R	Shahar va tumanlar nomi	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	Suv resurslari-dan foydalanganlik uchun soliq	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noruda	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (ITD)	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq
1	Uchquduq tumani	50	10	100	100	100	100	100

Xalq deputatlari Uchquduq  
tuman Kengashining  
2023-yil 29-dekabrdagi  
VI-78-152-5-76-K/23-son  
qaroriga  
4-ilova

**Tuman mahalliy budjetining 2024-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy  
hajmi**

*ming so 'mda*

<b>Hudud nomi</b>	<b>Daromad</b>	<b>Xarajat</b>
<b>JAMI</b>	<b>57 612 200</b>	<b>132 923 441</b>
Uchquduq tumani	57 612 200	132 923 441

Xalq deputatlari Uchquduq  
tuman Kengashining  
2023-yil 29-dekabrdagi  
VI-78-152-5-76-K/23-son  
qaroriga  
5-ilova

**Tuman mahalliy byudjetining 2024-yilgi yuqori byudjetdan ajratiladigan tartibga  
soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari**

*ming so 'mda*

<b>Shahar va tumanlar</b>	<b>Tartibga soluvchi transfert miqdori</b>	<i>Shundan aksiz solig'i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag'lar</i>
<b>JAMI</b>	<b>75 311 241</b>	<b>6 743 838</b>
<i>shundan</i>		
Uchquduq tumani	75 311 241	6 743 838

Xalq deputatlari Uchquduq  
tuman Kengashining  
2023-yil 29-dekabrdagi  
VI-78-152-5-76-K/23-son  
qaroriga  
6-ilova

**Tuman mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet  
mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori**

*ming so ‘mda*

T/r	Hudud nomi	Miqdor
	<b>JAMI</b>	<b>532 149,0</b>
	<i>Shundan</i>	
1	Uchquduq tumani	<b>532 149,0</b>